



"Kelishilgan"
Nishon tumani
hokim o'rinbosari
U.Nabiyev

" " _____ 2022 y.



"Tasdiqlash"
Qashqadaryo viloyati
hokim o'rinbosari
A. B. Eshonqulov

" " _____ 2022 y.

"Kelishilgan"
Qashqadaryo viloyati hokimligi
yagona buyurtmachi xizmati injinirov
kompaniyasi boshlig'i



" " _____ 2022 y.

"Kelishilgan"
Qashqadaryo viloyati Qurilish
bosh boshqarmasi boshlig'i
R. Shaymardonov



" " _____ 2022 y.

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani "Paxtazor" MFY hududida joylashgan zamonoviy issiqxona majmuasiga 1x250 kVt TP o'rnatish va 3.9 km elektr tarmog'ini tortish ishchi loyihasi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun

TEKNIK TOPSHIRIQ

T/R	Asosiy nomi ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni
1	Loyihaviy obyekt nomi	Qashqadaryo viloyati Nishon tumani "Paxtazor" MFY hududida joylashgan zamonoviy issiqxona majmuasiga 1x250 kVt TP o'rnatish va 3.9 km elektr tarmog'ini tortish ishchi loyihasi
2	Qurilish joyi	Nishon tumani "Paxtazor" MFY hududida joylashgan
3	Buyurtmachi	Qashqadaryo viloyati hokimligi yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi
4	Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun asos..	Vazirlar Mahkamasini Rayosati majlisining 2022 yil 20 iyundagi 94-sonli bayoni
5	Qurilish turi	Qurish
6	Moliyalashtirish manbai	Respublika byudjet
7	Qurilishning taxminiy qiymati, mln.so'm.	Loyihani taxminiy hisobiy qiymati. 800,0 mln.so'm. Loyiha ishlari bajarilgandan so'ng yakuniy ekspert hisobiga asosan aniqlanadi.
8	Loyiha tashkilotining nomi - bosh loyihachi	Tanlovi asosida belgilanadi
9	Ishchi loyihaning tarkibi	<p>Ishchi chizmalar quyidagi tarkibda ishlab chiqilsin.</p> <ul style="list-style-type: none"> -qisqa tushuntiruv yozuvi. -smeta hujjatlari. -bosh reja -lotok suv tarmog' chizmalari <p>Ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tashkilotlariga taqdim etish uchun buyurtmachiga bir nusxada (qog'oz va elektron shakllarda) taqdim etiladi.</p> <p>Ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng SHNQ 1.03.01-20 ga asosan buyurtmachiga ishchi loyihalar 3 nusxadan qog'ozga chop etilgan holda va bir nusxada electron desk ko'rinishida taqdim etiladi.</p>
10	Smeta-narxli hujjatlarni tayyorlash uslubiga qo'yiladigan talablar.	<p>Obyektning boshlang'ich qiymati SHNQ 1.03.01-08 bo'yicha, Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyuldagi 261-sonli va 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qaroriga va qonunchilikda belgilangan tartiblar asosida, joriy narxlarda aniqlansin. Smeta hujjatlarida nazarda tutulgan ish hajmlari, qurilish qilish, montaj qilish va maxsus ish turlari, loyihada qabul qilingan yechimlarga mos kelishi ta'minlansin. Smeta hujjatlarini tasdiqlangan standartlarga muvofiq, rejalashtirilgan qurilish muddatiga to'g'ri keladigan narxlar bilan amaldagi narxlash tartibiga muvofiq ishlab chiqilsin. Obyektlarning hisob-kitoblar natijasida aniqlangan, joriy narxlardagi qurilish qiymatlari asoslangan va ishonchli bo'lishi ta'minlansin.</p> <p>Loyiha hujjatlari bo'limlari tarkibi va ularning</p>

T/R	Asosiy nomi ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni
		<p>mazmuni amaldagi me'yoriy guquqiy bazaga muvofiq bo'lishi kerak. Smetalarni joriy narxlarda shakllantirish jarayonida qurilish mahsulotlari mehnat resurislari, mashina va mexanizmlar uchun asosiy narxlar va qiymatlar quyidagi qiymatlarda qo'llanilsin.</p> <p>Davlat statistikasi qumitasi rasmiy saytiga (Stat.uz) joylashtirib boriladigan</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'rtacha soatlik ish haqqi miqdori mintaqalarning o'rtacha statistik ma'lumotlari asosida. 2. Mashina va mexanizmlardan foydalanish uchun o'rtacha narxlar hamda sarflar miqdori o'rtacha statistik ma'lumotlar asosida. 3. Qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar va jihozlar birligiga harajatlarning o'rtacha qiymati tayyorlavchi zavodlarning ulgurji sotish narxlari, qurilish materiallari berjalari va yarmarkalaridagi kataloklari asosida 4. Pudratchining boshqa xarajatlari 19.54% olinsin. <p>Buyurtmachining boshqa xarajatlari va sarflari buyurtmachining ma'lumotlari asosida shakllantirilsin.</p>
11'	Loyihalashtirilgan ob'ektning tarkibi.	zamonoviy issiqxona majmuasiga 1x250 kVt TP o'rnatish va 3.9 km elektr tarmog'ini tortish
12	Yong'in xavfsizligi bo'limini ishlab chiqish talablari.	Talab qilinmaydi.
13	Dizayn va qurilish jarayonida tajriba-konstruktorlik va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish talablari.	Talab qilinmaydi.
14	Namoyish materiallarini bajarish talablari.	Talab qilinmaydi.
15	Hududni obodonlashtirish va kichik arxitektura shakllariga quyilgan ta'lablar	Talab qilinmaydi.
16	Qurilishning belgilangan muddatlari (yillar).	Ekspertiza xulosasiga asosan
17	Loyiha va qurilishning maxsus shartlari.	Normativ hujjatlar va KMK va SHNQ talablariga muvofiq
18	Ishchi hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish (loyiha tashkiloti tomonidan qilingan xatolarni tuzatishdan tashqari).	Hukumat va foydalanuvchi tashkilot xatiga ko'ra
19	Loyiha tashkiloti (POS) loyihasini ishlab chiqish.	Qurilishni tashkil etish loyihasi to'liq hajmda SHNQ 3.01.01-03 ga mos ravishda ishlab chiqilsin.
20	Qurilishning mualliflik nazorati.	Mualliflik nazoratini olib borish loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan grafik asosida olib

T/R	Asosiy nomi ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni
		boriladi. Ob'ektda pudratchi yoki buyurtmachi tomonidan muammoli masala va taklif kiritilishi ko'tarilganda loyixachining ob'ektga borishi zarur va shart xisoblanadi.
21	Loyiha hujjatlari berilgan nusxalar soni, bo'limlarning tarkibi va mazmuni bo'yicha ko'rsatmalar.	Loyiha-smeta hujjatlari mijozga miqdori bo'yicha beriladi: Ishchi loyiha - 3 nusxada; Joriy narxlarda resurslar ro'yxati va mahalliy-resurs varaqasi - 1 nusxa. Resurs varaqasi va elektron versiyada mahalliy ro'yxat - 1 disk
22	Atrof-muhitni muhofaza qilish talablari.	SanPiN №0292-11 va amaldagi KMK talablariga muvofiq AMTKB loyihasi i/ch alohida shartnoma asosida.
23	Qo'shimcha talablar	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bajaruvchi ekspertizadan o'tkazish jarayonida loyiha yechimlari to'g'ri qo'llanilganligi bo'yicha himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish 2. Loyiha tashkiloti ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlarini manfaador tashkilotlar bilan kelishishni ta'minlaydi. (arxitektura va qurilish boshqarmasi va h.k)
24	Loyixa tashkilotining majburiyatlari	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qarorini 4-ilovasi II-bo'lim 8-punkti hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrda PQ-43-sonli qaroriga asosan ga ko'ra loyihalash jarayonida yo'l qo'yilgan hato va kamchiliklarga bosh loyiha tashkiloti tomonidan javobgar etib ko'rsatilganligi sababli loyiha ishlari uchun o'zaro tuzilgan shartnomaning 70% miqdoridagi jarima qo'llanilishini, va bosh pudratchiga etkazilgan zararni (buzib olish ishlari) uz xisobidan qoplab beradi.

Qashqadaryo viloyat hokimligi
yagona buyurtmachi xizmati injiniring
kompaniyasi loyiha bo'lim boshlig'i



T. Turayev